

## Institutimizga rasmiy tashrif bilan

Tabiiy resurslardan foydalanish jahonshumul muammolardan ekani ayon. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar xayrlik va savobli bo'libgina qolmay, balki dunyo xalqlarining osoyishtaligi va farovonligi masalasiga ham borib bog'lanadi. Osiyo taraqqiyot banki (ADB)ning Atrof-muhit, tabiiy resurslar va qishloq xo'jaligi departamenti boshlig'i Yasmin Siddiki boshchiligidagi delegatsiyasi TIQXMMIga rasmiy tashrif buyurdi. Yasmin Siddiki Osiyo taraqqiyot bankining 150 mln. dollarlik loyahasini amalga oshirishda institutning suv resurslardan foydalanish tajribasini o'rgandi. Osiyo taraqqiyot bankining suvdan integratsiyalashgan tarzda foydalanish bo'yicha loyahasini bajarishda TIQXMMI bilan hamkorlik qilish bo'yicha muzokaralar olib borildi.

Melbrun universitetining "Suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish" kafedrasida tadqiqotchisi Kliv Layl Avstraliyada suv resurslaridan boshqarish tajribasi bilan o'rtoqlashdi. Shtatlararo suv resurslardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va O'zbekistonda joriy qilish yo'llari haqida so'z yuritdi. Suv va yer resurslari, bir so'z bilan aytganda, tabiiy resurslarni oqilona boshqarish bilan bog'liq muammolarni hal etishda istiqbolli hamkorliklar katta natijalar berishiga umidvormiz.



**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**